

***O‘zbek adabiyotshunosligi ravnaqida
munosib hissa qo‘shgan Vohid Zohidov, Izzat
Sultonov kabi yetuk olim va g‘amxo‘r
muallimlardan biri Saidjon Aliyevdir.***

Saidjon Aliyev – ilm-u ma‘rifat maskani, ko‘hna, navqiron Buxoro farzandi. U 1920-yilning 8-noyabrida dindor oilasida dunyoga keladi. Otadan erta judo bo‘lgan Saidjon onasi Zahro aya qo‘lida qoladi. Zahro aya o‘qimishli san‘at va adabiyotni jon dildan sevgan ayol bo‘lganlar.

Ustoz 1944-4-yillar orasida Buxoroda muallimlik qilish bilan birga sirtqi aspiranturada o‘qib, O‘rta Osiyo davlat universiteti professori A.Sa‘diy rahbarligida ish olib borib, 1948-yilda “Zahiriddin Muhammad Boburning poetik ijodi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan yoqladi. Bu ishga akademik Oybek va fan nomzodi, dramaturg Izzat Sulton rasmiy hakamlik qilishadi. Olimning “O‘zbek dramaturgiyasining shakllanishi va rivojida o‘zaro adabiy aloqalarning roli” deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyot yo‘llarini belgilab berdi. Ishning rasmiy hakamlari O‘z RFA muxbir a‘zosi, dramaturg I. Sulton, akademik V.Abdullaev, professorlar Mirali Sayidov, J.Sharipov va M.Yunusovlar yuqori baholadilar.

Unutilmas sahifalar” (1986), “Buxoroda bitilgan baytlar” (1992) deb nomlangan kitoblari ular qaysi janrda bo‘lmasin, hammasida ustoz beshigini tebratgan Buxoroyi sharif bilan bog‘liq yorug‘ nuqtalarning ko‘pligi ularni bir tizimga birlashtiradi. Ularda Fitrat, Hamza, Ayniy, Oybek, Mirbobo Muhsinzoda, Sharif Nurxon, Sulton Jo‘ra singari adiblar hayoti va asarlarining Buxoro bilan bog‘liq nuqtalari, o‘zbek-tojik adabiy aloqlarining nisbatan kam o‘rganilgan qirralari o‘ziga xos yo‘sinda qalamga olingan.



Aziz ustoz!

Sizning samimiyligingiz, haloligingiz, mehridaryoligingiz qarshisida ta‘zim qilaman! Ustoz! Siz men uchun hamisha ezgulik, insoniylik timsoli bo‘lib keldingiz. Siz yaratgan yuksak mahorat, poklik maktabida Sizning pok e‘tiqod, halollik ilmingizni shogirdlarimizga o‘rgatishdan charchamaymiz. Siz esa hayotimizni nurga o‘rab, yog‘du sochib hamisha qalbimizda yashayverasiz.

Professor Shoiraxmedova

...Молодой литературовед тов. АЛИЕВ взял на себя труд заполнить этот пробел...

...Тов. АЛИЕВ много лет работает в Бухарском педагогическом институте, где читает курс истории узбекской литературы, хорошо знает источники, участвует в узбекской и таджикской печати, занимается вопросами узбекской советской литературы, что и следует всячески приветствовать. Диссертационная работа тов. АЛИЕВА вполне достойна быть представленной на соискание ученой степени кандидата филологических наук.

**М.Т.АЙБЕК, действительный член АН УзССР
27 сентября, 1948 г.**

Said Aliev men uchun to‘g‘rilik, rostlik va hallolikning bir timsoli. Lekin Said Aliev bir umr ilm-ma‘rifat, e‘tiqod va ma‘naviy tozalikka to‘la sadoqat bilan yashadi. Bunday qismat hammaga ham nasib etavermaydi. Domla so‘nggi nafasigacha chinakam tadqiqotchilik zahmatidan qochgan emas. Nima yozgan bo‘lsa, aytarli barchasida tafakkur mehnati, izlanish rag‘bati, xolislik hikmati muhrlanib qolgan. Menimcha, Said Alievning ilmiy-ijodiy merosi kelajakda yanada yuksak qadr topishi va alohida qiziqish bilan o‘qib-o‘rganilishi shak-shubhasizdir.

Navoiyshunos, professor Ibrohim Haqqulov